

O'ZBEK VA TURK TILI MAKTAB DARSLIKLARIDA FONETIK MATERIALLAR HAQIDA

Muxammadiyeva Sanobar Baxtiyor qizi,

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-kurs magistranti
Vahit Turk, ilmiy rahbar, Istanbul madaniyat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
muhammadiyevasanobar@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistondagi va Turkiyadagi maktab darsliklarida fonetik materiallarning taqdim etilishi tahlil qilinadi. O'zbek va turk tili maktab darsliklaridagi fonetik materiallarning o'xshash va farqli jihatlari qiyoslanadi.

Kalit so'zlar. Unli tovushlar, undosh tovushlar, tovush uyg'unligi, tovush va harf, fonetik materiallar, qiyosiy tahlil.

ÖZBEK VE TÜRK OKUL DERS KİTAPLARINDA FONETİK MATERYALLER ÜZERİNE BİR İNCELEME

Sanobar Muxammadiyeva Bakhtiyor qizi,

*Özbekistan-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü İstıfıyükksek lisans öğrencisi
Vahit Türk, bilimsel danışmanı,
Istanbul Kültür Üniversitesi profesörü, filoloji bilimleri doktoru*

Özet. Bu makale, Özbekistan ve Türkiye'deki okul ders kitaplarında yer alan fonetik materyallerin karşılaştırmalı bir analizini sunmaktadır. Fonetik içeriğin sunumundaki benzerlikler ve farklılıklar her iki ülkenin eğitim bağlamında incelenmektedir.

Anahtar kelimeler. Ünlü sesler, ünsüz sesler, ses uyumu, ses ve harf, fonetik materyaller, karşılaştırmalı analiz.

АНАЛИЗ ФОНЕТИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ В УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ШКОЛЬНЫХ УЧЕБНИКАХ

Мухаммадиева Санобар Бахтиёр кизи,

*Магистрантка Узбекско-Финского педагогического института
Вахит Турк, научный руководитель,
профессор Стамбульского университета культуры,
доктор филологических наук*

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ изложения фонетических материалов в школьных учебниках Узбекистана и Турции, а также их различия и сходства. Сравниваются сходства и различия узбекских и турецких школьных учебников.

Ключевые слова. Гласные, согласные, звуковая гармония, звук и буква, фонетический материал, сравнительные анализ.

AN ANALYSIS OF PHONETIC MATERIALS IN UZBEK AND TURKISH SCHOOL TEXTBOOKS

Mukhammadiyeva Sanobar Bakhtiyor qizi,

*First-year master's student at the Uzbekistan-Finland pedagogical institute
Vahit Turk, scientific advisor,
Professor Doctor of philological sciences, Istanbul Kultur University.*

Annotation. This article presents a comparative analysis of the phonetic materials included in school textbooks of Uzbekistan and Turkey. It examines the similarities and differences in the way phonetic content is presented and Uzbek and Turkish educational contexts.

Keywords. Vowel sounds, consonant sounds, sound harmony, sound and letter, phonetic materials, comparative analysis.

Turkiy tillar oilasiga kiruvchi turk tili o'zbek o'quvchisi uchun butunlay begona emas. Shunga qaramasdan, uning o'ziga xos farqli qirralari mavjud. Buni, avvalo, tilning kelib chiqishi va fonetika bo'limidan boshlash lozim. Sababi turk tilini o'rganayotgan o'quvchi uchun turk tili fonetikasining o'ziga xos tomonlarini aniq va lo'nda qilib ochib berish zarur. Fonetikani yaxshi o'zlashtirish, bu o'quvchiga, avvalo, to'g'ri talaffuz qilish uchun muhim. So'z to'g'ri talaffuz qilinmasa so'zning ma'nosi tushunilmaydi yoki noto'g'ri tushunchaga olib keladi. Misol uchun: Sinir (chegara) – sinir(asab), olmak(bo'lmoq) – olmak(o'lmoq), koku(hid) – koku(ildiz), atmak(otmoq), - etmek (qilmoq), ... kabi. Bunga o'xshagan misollarni ko'plab keltirish mumkin. Yana turk tili fonetikasini yaxshi bilgan talabada imlo xatolar ham kam uchraydi. [I.X.Kamalovna „O'zbek auditoriyasi uchun turk tilini o'qitishdagi ba'zi o'ziga xoslik xususida" maqolasi,75-bet].

O'zbek va turk tilining o'qitilishida esa maktab darsliklari muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda, avvalo, fonetika bo'limida nimalar o'rganilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo'lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo'ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo'linishi, tovushlarning kommunikativ roli, hamda prosodika kabi hodisalar o'rganiladi. Demak, fonetika- (gr. Phone – tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. Har bir til o'z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo'lishi va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg'u va bo'g'in xususiyatlarini tekshiradi. [D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirova „O'zbek tili fonetikasi" o'quv qo'llanmasi, 4-bet]

Maktab darsliklaridagi fonetik materiallar esa tovush tizimi, talaffuz qoidalari, urg'u haqida ma'lumot beruvchi bo'limlarni o'z ichiga oladi. O'zbek va turk tillarida ushbu materiallar quyidagicha taqdim etiladi:

O'zbek tili darsliklarida fonetik materiallar:

✓ O'zbek tili darsliklarida fonetik materiallar asosan 1-4-sinflarda boshlang'ich darajada o'qitiladi va keyinchalik murakkab fonetik hodisalar 5-9-sinflarda batafsil o'rgatiladi.

✓ Darsliklarda tovush va harflar alohida bo'limlarda yoritilib, unli va undosh tovushlarning sinflanishi tushuntiriladi.

✓ So'z urg'usi va tovush uyg'unligi singari hodisalarga darsliklarda kam e'tibor beriladi.

✓ Darsliklarda ko'proq yozma mashqlar, fikrlashga doir boshqotirmalar, matn bilan ishlash berilgan. Audiomatn tinglash va shu asosda topshiriqlarni bajarish uchun ham darslar keltirilgan.

Turk tili darsliklarida fonetik materiallar:


✓ Turk tili darsliklarida fonetik materiallar tizimli va qoidalar asosida taqdim etiladi.

✓ Turk tilida tovush uyg'unligi muhim o'rin tutgani sababli darsliklarda unga alohida urg'u beriladi.

✓ 1-3-sinflarda unli va undosh tovushlarning talaffuzi, tovush o'zgarishlari ko'rsatiladi.

✓ 4-8-sinflarda esa urg'u, intonatsiya va tovush o'zgarishlari chuqurroq o'rganiladi.

Turk tili maktab darsliklarining 3-sinfida alifbodagi 29ta harf, ularning talaffuzi, katta harflarning yozilishi, kichik harflarning yozilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar yuzasidan qiziqarli topshiriqlar ham berilgan.



[Ilkoku turkçe ders kitabı 3-sınıf. Yazarlar B. E. Karaduman, E. Özdemir. O. Yilmaz, Istanbul, 2019. 25-sahfa].Yuqoridagi mashqda raqamlarda yashiringan harflarni tiklash orqali soʻzlarni topish kerak.

Oʻzbek maktablaridagi 3-sinf ona tili darsligida esa „Tovush va harflar”, Unli tovushlar va harflar”, „Undosh tovushlar va harflar” mavzularida bevosita oʻzbek alifbosidagi 29ta harf (30ta tovush) haqida maʼlumotlar mavjud. Yuqoridagi oʻzbek va turk tili 3-sinf ona tili darsligida alifboni oʻrgatishdagi oʻxshashliklarni kuzatishimiz mumkin. Ikkala darslikdagi oʻquvchilar uchun berilgan topshiriqlarda ham bir-biriga yaqinlik bor.

Ikkala tilning alifbosi haqidagi maʼlumotlarga tayangan holda oʻzbek va turk tili alifbosidagi oʻxshash va farqli jihatlarni qiyoslaymiz.

Oʻxshash jihatlari:

- ✓ Hozirgi kunda ikkala til ham lotin alifbosiga asoslangan.
- ✓ Harflarning koʻpchiligi bir xil. Har ikkala alifboda ham mavjud harflar: **A, B, D, E, F, G, H, I, K, L, M, N, O, P, R, S, T, U, V, Y, Z.**
- ✓ Fonetik tamoyilga yaqinlik. Harf va tovushlarning yozilishi va oʻqilishi bir-biriga yaqin.

Farqli jihatlari:

- ✓ Oʻzbek alifbosida ‘ (apostrof) bor, turkchada yoʻq.
- ✓ Oʻzbek alifbosida 6ta unli mavjud: Aa, Oo, Uu, Oʻoʻ, Ee, Ii. Turk tilida esa 8ta unli bor: Aa, Oo, Uu, Üü, Öö, Ee, Ii, Ii. Demak, oʻzbek tilida 2ta unli kam.
- ✓ Oʻzbek va turk tilidagi baʼzi undoshlar yozilishida farqlarni koʻrishimiz mumkin. Masalan, SHsh –Şş, Chch –Çç, Jj – Cc,
- ✓ Oʻzbek tilidagi Qq harfi turk tilida yoʻq. Uning oʻrniga Kk harfini ishlatadi. Masalan, kulak – quloq, kar – qor, kalın – qalın.
- ✓ Oʻzbek tilida qoʻllaniladiga Xx harfi turk tilida yoʻqligi uchun ular Hh harfi orqali soʻzlarni ifodalaydi. Masalan, haber – xabar, harita – xarita.
- ✓ Oʻzbek tilidagi Gʻgʻ (gʻazal, gʻarb, gʻoz kabi soʻzlarda qoʻllaniladigan) harfi turk tilida boshqa vazifani bajaradi. Yaʼni yumshoq Ğğ deb ataladi va oldidagi unlini choʻzib talaffuz qilish uchun ishlatiladi. Soʻzning qayerida va qanday harflarning yonida kelishiga koʻra farqlanadi. Masalan, ağaç(daraxt) - a:aç, eğitim(taʼlim) – eyitim, soğuk(sovuq) – soouk shaklida talaffuz qilinadi.

Oʻzbek va turk tillarining fonetik tizimi bir-biriga yaqin, ammo ularning oʻziga xos farqlari ham mavjud. Bu oʻxshashliklar tarixiy ildizning umumiyligidan dalolat bersa, farqlar esa har ikkala tilning mustaqil rivojlanish yoʻlini bosib oʻtganini koʻrsatadi. Oʻxshashliklar, birinchi navbatda, umumturkiy fonetik xususiyatlar – unli va undoshlar tizimi, soʻz tuzilishi, tovush

muvofigligi kabi omillar bilan izohlanadi. Bu jihatlar o'zbek va turk xalqlari o'rtasida tarixiy, madaniy va til jihatdan kuchli aloqalar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Fonetika sohasidagi farqlar esa ikki tilda so'zlashuvchilar o'rtasidagi tushunishni murakkablashtirmaydi, aksincha, fonetik jihatdan tanish elementlar orqali til o'rganishni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 1. Ilkokul türkçe ders kitabı 3sınıf. Yazarlar Karaduman B.E., Özdemir E., Yılmaz O. Istanbul, 2019. 25-sahfa
2. Ona tili. 3-sinf darsligi. Fuzalov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva SH.. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi. 2019. 13-bet
3. Imamova X. K. O'zbek auditoriyasi uchun turk tilini o'rganishdagi ba'zi o'ziga xoslik xususida. Maqola. „International scientific-practical conference on the topic of „Problemes and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” 4.11.2024. 75-bet.
4. Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Andijon. 2016, 4-bet.